



MINTAQA AGROSANOATIDA KLASSTERLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ALGORITMLARI

Abdullayev Olimjon G'ayratovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0004-8580-5859

agolider1987@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiriuvchi manba sifatida hududning iqtisodiyot tarmoqlarida faol mexanizmning optimallik mezonlariga mos ravishda joriy qilinganligi, klasterlashtirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayon bir qator omillarni birlashtirib, kompleks rivojlantirishning o'ziga xos iqtisodiy tahlili, ularning ko'rsatkichlarning guruhlangan tizimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar tarmog'i, agrosanoatni subklasterlashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, xarajatlarni minimallashtirish–klasterlar, salohitini baholash, optimallashtirish, klasterlashtirish.

АЛГОРИТМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ КЛАСТЕРОВ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ РЕГИОНА

Абдуллаев Олимжон Гайратович

Экономикий-педагогический университет

Аннотация. В статье рассматривается внедрение эффективного механизма в отраслях экономики региона как источника повышения экономического потенциала региона по оптимальным нормативам. Агломерация играет важную роль в социально-экономическом развитии регионов, поскольку этот процесс сочетает в себе ряд факторов, представлен уникальный экономический анализ комплексного развития, а также комбинированная система показателей.

Ключевые слова: сервисная сеть, субкластеризация агропромышленного комплекса, модернизация сельского хозяйства, инновационное развитие, снижение подборка, оценка их эффективности, оптимизация, кластеризация.

ALGORITHMS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF CLUSTERS IN THE REGIONAL AGRICULTURAL INDUSTRY

Abdullayev Olimjon Gayratovich

University of Economics and Education

Abstract. The article deals with the introduction of an effective mechanism in the economic sectors of the region as a source of increasing the economic potential of the region according to optimal standards. The agglomeration plays an important role in the social and economic development of the regions, because this process combines a number of factors, a unique economic analysis of complex development, and a combined system of indicators is presented.

Key words: service network, sub-clustering of the agricultural industry, modernization of agriculture, innovative development, cost reduction - clusters, evaluation of their efficiency, optimization, clustering.

Kirish.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi manba sifatida hududning iqtisodiyot tarmoqlarida faol mexanizmning optimallik mezonlariga mos ravishda joriy qilinganligidir. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlarida joriy etilgan mexanizmlarning mohiyatan umumlashgan qismi sifatida klasterlashtirish amaliyoti bilan chambarchas bog'langanligidir. Bizningcha klasterlashtirish amaliyoti iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarning ma'lum bir tarmoq yoki tarmoqosti xo'jalik subyektlari faoliyatida hududlararo hamda tarmoqlararo integratsiyalashuvini kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida asosiylik kasb etadi. Iqtisodiy resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarish va iste'mol qilishni boshqarishning qoidalari, institutlari va jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda asoiy klaster strategik manba sifatida ko'p funksional harakatni amalga oshiradi. Jumladan, bir chiziqli subklasterlararo resurs almashinuvini ta'minlaydi, axborotlashuv diapazonini kengaytiradi, subklaster a'zolarining faoliyatini rivojlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, innovatsiyalarni joriy qiladi va shu orqali iqtisodiy salohiyatini oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy nufuzini yaxshilab boradi.

Hududning agrosanoatini klasterlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayon bir qator omillarni birlashtirib, sinergetik ta'sir yaratadi. Hozirgi zamonaviy ilmiy yondoshuvlarga tayanilsa, nazarda tutilayotgan omillarni hududning xususiy va umumiy iqtisodiy-ijtimoiy imdjidan kelib chiqib tizimlashtirish mumkin bo'ladi. Hususan, Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyasida har ikki holat mavjud bo'lib, o'ziga xosligida asosiy jihat hudud YaHM tarkibida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining salmoqli hissasi borligi, ya'ni Respublika va uning tarkibiy hududlariga nisbatan eng katta ulushga egaligidir. Bu esa mintaqa agrosanoatning, agrosanoat tizimida olib borilayotgan islohotlarning ahamiyatlilik darajasini oshishga olib kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mamlakatimizda klasterlashtirish amaliyoti, agrosanoatni klaster usuli yordamida rivojlantirish jahon tajribasidan kelib chiqib, mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy potensialini, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyasini, amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashilgan keng ko'lamli jarayonlarini bajarishga erishish.

Adabiyotlar sharhi.


Agrosanoat klasterlarini subklasterlar asosida rivojlantirishda iqtisodiy potensialini baholashdan ilmiy nuqtaiy nazardan faoliyat sifatida, jarayon sifatida, omil sifatida va boshqa xususiyatiga ko'ra ta'riflash mumkin. O'zbekistonlik olimlarning (Рахимов, Махматкулов, Рахимов, 2021), Jo'rayev, Ochilov, Rakhimov, & Doliyev, (2023) Agrosanoat klasterlashtirishga bergan ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlari agrosanoatni klasterlashtirishning tashkiliy marketing tamoyillari asosida samaradorlikni oshirish modellarini (Sannikova, 2019), zamonaviy rivojlanish talablari asosida ulgurji va chakana savdo korxonalarini tashkil etish va yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishning turli modellarini (Smagin, 2002) taklif etishgan bo'lsada, bu modellar iqtisodiy-boshqaruv, marketing, tashkiliy xarakterdagi iqtisodiy qonuniyatlarni umumiy holda tushuntirish, ko'rsatkichlarning alohida holatida, bog'liqsiz baholash va tadqiq etish bilan cheklangan.

Mintaqada agrosanoatni klasterlashtirish rivojlantirishni modellashtirish va prognozlash, ishlab chiqarishni ko'p mezonli optimallashtirish, sanoatning hududiy rivojlanishi va uning ko'p omilli empirik modellarini tasniflash masalalarini, takomillashtirish ekonometrik modellari tuzishni olimlarning ilmiy izlanishlaridan keng joy egallagan (Jo'rayev, 2021).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qashqadaryo viloyatida umuman olganda barcha agrosanoatida klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish algoritmlari 4 bosqichli mexanizmlarga ajralishi hisobga olgan 4 ta algortimga ajratish mumkin. To'rt bosqichli mexanizmlarini esa quyidagicha taqsimlashni maqul deb topildi (1-rasm).



1-rasm. Agrosanoatni klasterlashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish algoritmi (dastlabki bosqich)

Bunda tizimli rivojlanuvchi agrosanoat klasterini tashkil etishning bosqichlari sifatida klasterlarni shakllantirish (1-bosqich), klasterlarning faoliyatini rivojlantirish (2-bosqich), klasterlarning samaradorligini baholash (3-bosqich) sifatida ko'rib chiqildi.

1-bosqich. Klasterlarni shakllantirish bosqichini amalga oshirish algoritmik jihatdan 4 ta qadamni tashkil etadi (1-4-qadamlar). Jumladan,

1-qadam. Potensial a'zolarini aniqlash. Potensial a'zolarini aniqlashda qishloq xo'jaligi korxonalarini, qayta ishlash korxonalarini, logistika korxonalarini, marketing va boshqa klaster faoliyatiga daxldor korxonalarini o'rganiladi va potensial a'zolar shakllantiriladi;

2-qadam. Umumiy manfaatlarni aniqlash. Umumiy manfaatlarni aniqlashda umumiy maqsadlar, qiziqishlar, muammolar, resurslar va boshqa umumiy jihatlarga e'tibor qaratiladi va kuzatiladi.

2-bosqich. Klasterlarning faoliyatini rivojlantirish bosqichini amalga oshirish algoritmik jihatdan keyingi qadamni tashkil etadi

3-qadam. Hamkorlikni mustahkamlash. Hamkorlikni mustahkamlash jarayoni birgalikda loyihalarni amalga oshirish, resurslarni birlashtirish, bilimlarni almashish, marketing zanjirini hosil qilish bilan olib boriladi.

4-qadam. Innovatsiyalarni joriy etish. Innovatsiyalarni joriy etish – bu yangi texnologiyalarni joriy qilish, yangi mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishni kengaytirish, yangi boshqaruv usullarini kiritish faoliyatini olib borish bilan amalga oshiriladi.

3-bosqich. Xalqaro moliyalashtirishni amalga oshirish algoritmik jihatdan 4 ta qadamni tashkil etadi. Jumladan,

5-qadam. Xalqaro moliya tashkilotlarining investitsiyalari. Bunda klasterlar faoliyatini, qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish, oziq-ovqat xafsizligini ta'minlash, is'temol tovarlari bozorini to'ldirish maqsadida Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot bankining maxsus investitsiyalarini qabul qilish mumkin bo'ladi.

6-qadam. Xalqaro grandlarni yutib olish. Bu xalqaro klasterlashtirish va klaster korxonalarini rag'batlantirish tashkilotlarining grandlari, Yevropa ittifoqining agrosanoat uchun grand loyihalari, xalqaro savdo tashkilotlarining grandlari va boshqalarning grand dasturlarida ishtirok etish va grand loyihalarini bajarish orqali qabul qilinadigan investitsiyalardir.

Mazkur subalgoritm klasterlarni tashkil qilish jarayoni bilan va uni rivojlantirish qarorlarini qabul qilish jarayonida tugallanadi. Shundan keyin klasterlashtirishning ikkinchi bosqichiga, ya'ni tizimli rivojlanuvchi agrosanoat klasterini moliyalashtirish mexanizmining subalgoritmi bo'yicha jarayon davom etadi. Ushbu subalgoritm ham uchta bosqichlarning ketma-ket bajariluvchi jarayonlaridan tashkil topgan.

Agrosanoatni klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish algoritmlari jarayonning bog'liqlik darajasini belgilab beradi va mazkur mexanizm korxonalar iqtisodiy potensialini oshirishga xizmat qiladi, hamda faoliyatini kengaytirishning asosiy omilidir.

Agrosanoat klasteri subklasterlar asosida rivojlanish mexanizmining eng asosiy amaliy natijalaridan biri – bu uning hududlararo faoliyatining yo'lga qo'yilganligidir. Hududlararo faoliyatining keng imkoniyatlari mavjud bo'lib, territorial cheklanishlarni yumshatish, tovar brendini shakllantirishni osonlashtirish, tashqi aloqalarga kirishishni va mahsulot (xizmatlar) bozorini kengaytirish shular jumlasidandir. Bazis klaster ko'p funksiyali bo'lishi uning korxona sifatida takomillashuvini anglatadi. Subklasterli tarmoqlanish ko'p funksiyalikni talab etadi. Mazkur algoritm agrosanoat klasterining iqtisodiy potensialini baholashdan boshlanadi. Klaster korxonasi faoliyatini kengaytirishda iqtisodiy jihatdan moliyalashtirish, resurs ta'minoti va boshqa xususiyatlariga ega bo'lishi muxim jihatdir.

Umumiy holda agrosanoat subklasterlari algoritmlash qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni yaratishga hududiy maqomdagi ishlab chiqarish drayverlaridir. Haqiqatan, ular qayta ishlashni rivojlantirish, bozorga kirishni osonlashtirish, innovatsiyalarni joriy qilish, kadrlarni tayyorlash, investitsiyalarni jalb qilish salohiyatiga egadirlar.

Xulosa va takliflar.

Ta'kidlash joizki, asosiy tamoyil, investitsiyani har bir klaster tarmoqlariga teng ravishda taqsimlash yo'li bilan diversifikatsiyalangan og'irlikni topishdir, shuning uchun ko'plab korrelyatsiyalangan aktivlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda umumiy bir xil taqsimotni oladi. Albatta, investitsiyalarni taqsimlash turli usulda bo'lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham klasterga investitsiyalarni taqsimlash usullarini sinov qilish, masofani o'lchash va klasterlar sonini tanlash uchun ishlatiladigan mezonlar hamda korrelyatsiya matritsasini baholashni takomillashtirish eng muhim ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Haqiqatan klasterlar a'zolariga resurslarni birlashtirishga imkon beradi, bu esa samaradorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Mahalliy xom ashyodan foydalanishni rag'batlantiradi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Agrosanoat klasterlarini subklasterlar asosida rivojlantirishda jarayonning nozik xususiyatlarini doimiy nazorat qilish, jumladan, faoliyati kengaytirilgan subyekt mahsulot (xizmatlar) bozorida a'zolarining o'rnini egallash tamoilida emas, balki a'zolar funksiyalarini o'zlashtirish va ijroda ularning manfaatlarini hisobga olgan holda xarakatni tashkil etishi, ya'ni a'zolarining bozorga kirishini bitta kompleks tizim asosida osonlashtirishi zarur. Ushbu tamoil va mezon yiriklashgan klaster korxonasining monopollashuv darajasini cheklaydi va sog'lom raqobat muxitini yaratishdagi xissasini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Jo'rayev F. (2021) Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish //Iqtisodiyot va ta'lim. – №. 4. – S. 377-385.

Jo'rayev F.D. (2021) Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni qisqa muddatli prognozlashtirish //Innovatsion texnologiyalar. – №. 2 (42). – S. 92-95.

Jo'rayev, F.D., Ochilov, M.A., Rakhimov, A.M., & Doliyev, S.Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

Ochilov, M.A., Juraev, F.D., Maxmatqulov, G.X., & Rahimov, A.M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. *Journal of Critical Review*, 7(15), 1679-1684.

Qaror (2015) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda "2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli Qarori.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi №458-son- Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori.

Smagin B.I. (2002) Kineticheskaya proizvodstvennaya funktsiya – kak osnova opisaniya zakonomernostey sel'skoxozyaystvennogo proizvodstva /B.I. Smagin // Nauchniye osnovi funktsionirovaniya i upravleniya APK. Nauchniye trudi NAEKOR. Vip.6. Tom 3. – M.: SXA, – S.258-264.

Sannikova T.D. i drug. (2019) Zarubejniye modeli sifrovoy transformatsii i perspektivi ix ispolzovaniya v rossiyskoy praktike. Jurnal Ekonomicheskkiye otnosheniya. Tom 9, № 2, Str-481-494.

Рахимов, А.Н., Махматкулов, Г.К., и Рахимов, А.М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. Американский журнал прикладных наук, 3 (02), 21–48.